

## SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON TAQDIRI MUAMMOSI

Samarqand davlat universiteti  
**Abduqodirova Durdona Anvar qizi**  
4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyalari haqida fikr yuritiladi. Asosan “Odam”, “Nomalum odam”, “Tanhilik” hikoyalarini tahlil qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** Surxon muhiti, notanish odam, tanholik, Tolstoy, Kukracha, kamar.

Adabiyot quroli so‘z! Aynan so‘z orqali hayotni, insonni badiiy talqin qilgan, adabiyot olamida kitobxon mehrini qozongan adib Shukur Xolmirzayevdir. Yozuvchi uslubiga E’tibor qaratadigan bo‘lsak, uslubi sodda, har qanday jimjimadorlikdan holidir. Shoир qahramonlar hayotini ixcham ma’noda tasvirlaydi. Asarni lo‘nda, ohangdor, zamzamali dialoglar asosida qurishni o‘z yozuvchilik darajasiga ko‘taradi.

Yozuvchining ko‘pgina hikoyalari ham hajmi kichik, lekin salmog‘i kattadir. Masalan: “Notanish” odam hikoyasini olaylik, hikoya ovga borayotgan edim, havo aynidi, “Bahor havosida bir suvalab o‘tar” deb ketaverdim. Turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Kamarga kirdim”. Shu o‘rinda biz yozuvchining mahoratiga qoil qolishimiz kerak, chunki asarni boshlashdanoq, o‘quvchini ergashtira oldi.

Notanish odam kamarga kirgan ovchi yigit oldiga borini to‘kib tashlaydi. Lekin yigit ko‘nglida unga nisbatan gumon kuchayadi. Kamarga notanish odam bir quchoq o‘tinni ko‘tarib kirib “Isina bering” deydi. Yigit esa olovni minnat qilayabdi deb tushinadi. Bir ozdan so‘ng tashqariga chiqib notanish odamning daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shox-shabbaning terayotganini ko‘radi va bu o‘tinni uyiga olib ketadi deb o‘ylab qoladi. Ko‘p o‘tmay yigit o‘zining shubhali hayollaridan uyalib ketadi. Chunki u odam o‘tinni olib ketish uchun emas, boshqa bir yo‘lovchilar sovuqda havoda o‘t yoqib isinishlari uchun toshib kelgan ekan.

Bugun zamonimiz o‘zgardi, zamonni o‘zgartiradigan boshqa odamlarga qo‘silib ko‘pchilik o‘zgardi. Lekin haligacha ham o‘zini o‘ylaydigan insonlar bor oramizda. Bu hikoya menga gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Kukracha” qissasini eslatdi. Qissada ham Kukracha notanish odamga o‘xshab odamlarga ta’masiz beg’araz yordam beradi, evaziga hech narsa kutmaydi va buni o‘zining insoniy burchi deb biladi. To‘g‘ri hayotda yaxshi insonlar bor, ammo juda ham ozdir. Oz bo‘lsada Kukracha va Notanish

odamdek insonlarning hayotda borligi uchun jamiyatda muvozanat saqlanib turibdi. Asarning ahamiyati ham shunda deb bilaman.

Yozuvchining yana bir hikoyasi “Odam” bu hikoya juda ta’sirli. Hikoyada Rahima ismli ayolning hayoti, kechmish-kechinmalari, qalamga olinadi. Rahima onasi vafptidan so‘ng o‘zi xphlamagan Shodmon polvonga turmushga chiqadi. Oradan to‘rt yil o‘tib inqilob boshlanadj, shu orada turmush o‘rtog‘i vafot etadi. Rahima uchta bolasi bilan beva qoladi. U el qatori kalxozga kiradi. “Qizillar kelayabdi” degan ovoz tarqalib odamlar bilan tog‘ga qochadi. Kichik farzandi tog‘ga chiqaman deb tog‘da ochlikdan vafot etadi. Asarda bir ayol matonatiga qoil qolmasdan iloj yo‘q. Eridan ayrilgani yetmaganidek, ikki farzandni tuproqqa bergen onani sabr-matonati ko‘eib ko‘zga yosh keladi.

Yozuvchining yana bir hikoyasi “Tankalik” hikoyasidir. Hikoyada bashariyat murabbiylaridan biri L. Tolstoy haqida. Asarda ulug’ bobomizning ulug‘ umri oxiridagi alamli o‘ylari, iztiriblari,falsafayu, donishmandligi mohirona tasvirlangan. Inson shaxsi uning tanigamas, ruhiyatiga taalluqlidir. Hikoyani o‘qib Shukur Xolmirzayev va Tolstoy o‘rtasida ruhiy yaqinlik bor deb o‘yladim.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh. Xolmirzayev. “Saylanma”. Toshkent. Manaviyot nashriyot. 2003-yil
2. N. Erkayeva. “Shukur Xolmirzayev haqida” Toshkent. Manaviyat. nashriyoti. 2001-yil.
3. Mirziyoyev. Sh. M. “Erkin va forovon demokratik. “O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti. 2016-yil 56-bet.